QURILISH OBYEKTLARI QIYMATINING OSHISHI VA MARKAZLASHTIRILGAN KAPITAL QO‘YILMALARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNI BAHOLASH

Bozorov Bobur Haqberdiyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada qurilish obyektlari qiymatining oshishi va markazlashtirilgan kapital qo‘yilmalardan foydalanish samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik miqdoriy baholangan. Samaradorlik nominal mablag‘larning real qurilish hajmiga aylanish darajasi sifatida ta’riflangan va qiymat oshishining xarid qobiliyati hamda talab kanallari ajratilgan. 2021–2025-yillarda markazlashgan investitsiyalarning 24,6 foizi (62,0 trln so‘m) narx oshishini qoplashga sarflangani, hududlarda nominal qurilish o‘sishidagi narx ulushi 37,9–60,1 foiz oralig‘ida farqlanishi aniqlangan. 2026–2028-yillar dasturining real qiymati ssenariylar bo‘yicha prognoz qilinib, bazaviy ssenariyda 10,8 foiz, pessimistik ssenariyda 15,5 foiz yo‘qotish kutilishi ko‘rsatilgan. Real limitlarni rejalashtirish formulasi va samaradorlik indeksi taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: *markazlashtirilgan kapital qo‘yilmalar, samaradorlik, qurilish qiymati, xarid qobiliyati, talab kanali, real limit, ssenariy tahlili, hududiy tafovutlar.*

Аннотация. В статье количественно оценена взаимосвязь роста стоимости строительных объектов и эффективности использования централизованных капитальных вложений. Эффективность определена как степень превращения номинальных средств в реальный объём строительства; выделены канал покупательной способности и канал



спроса. Установлено, что в 2021–2025 гг. 24,6% централизованных инвестиций (62,0 трлн сумов) ушло на покрытие роста цен, а доля ценового фактора в номинальном росте строительства по регионам колеблется от 37,9 до 60,1%. Спрогнозирована реальная стоимость программы 2026–2028 гг.: потери составят 10,8% в базовом и 15,5% в пессимистическом сценарии. Предложены формула планирования реальных лимитов и индекс эффективности.

Ключевые слова: *централизованные капитальные вложения, эффективность, стоимость строительства, покупательная способность, канал спроса, реальный лимит, сценарный анализ, региональные различия.*

Abstract. The article quantifies the relationship between construction cost growth and the efficiency of centralized capital investment. Efficiency is defined as the rate at which nominal funds are converted into real construction output, and purchasing-power and demand channels are distinguished. In 2021–2025, 24.6% of centralized investment (UZS 62.0 trillion) was absorbed by price increases, and the price share of nominal construction growth ranged from 37.9% to 60.1% across regions. The real value of the 2026–2028 programme is projected to fall by 10.8% in the baseline and 15.5% in the pessimistic scenario. A formula for planning real limits and an efficiency index are proposed.

Keywords: *centralized capital investment, efficiency, construction cost, purchasing power, demand channel, real limit, scenario analysis, regional differences.*

KIRISH

Markazlashtirilgan kapital qo‘yilmalarning asosiy maqsadi – ijtimoiy va infratuzilma obyektlari ko‘rinishidagi jismoniy kapitalni yaratish. Shu sababli ularning samaradorligini baholashda sarflangan nominal mablag‘lar hajmi emas, balki ular evaziga yaratilgan real quvvatlar hajmi hal qiluvchi

ahamiyatga ega [1]. Qurilish obyektlari qiymatining oshishi bu samaradorlikni bevosita pasaytiradi: bir xil nominal mablag‘ evaziga kamroq real hajm yaratiladi. Xalqaro baholashlarga ko‘ra, o‘rtacha mamlakat davlat investitsiyalaridan olinishi mumkin bo‘lgan samaraning taxminan 30 foizini boshqaruvdagi samarasizlik tufayli yo‘qotadi. Amalga oshirish bosqichidagi qiymat o‘sishi bu yo‘qotishlarning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi [2; 3].

Maqolaning maqsadi – qurilish obyektlari qiymatining oshishi va markazlashtirilgan kapital qo‘yilmalardan foydalanish samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni miqdoriy baholash va samaradorlikni oshirish vositalarini asoslash.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Davlat investitsiyalari samaradorligi nazariy va empirik jihatdan keng o‘rganilgan. D.Ashauer davlat infratuzilma kapitalining xususiy sektor unumdorligiga ijobiy ta’sirini isbotlagan [1]. E.Dabla-Norris va hammualliflar davlat investitsiyalari samaradorligi indeksini ishlab chiqib, rivojlanayotgan mamlakatlar o‘rtasida loyihalarni tanlash va amalga oshirish sifatida katta tafovutlarni aniqlagan [4]. Jahon banki mutaxassislari davlat investitsiyalarini boshqarishning sakkizta majburiy elementini ajratgan [5]. B.Flyvbjerg va hammualliflar infratuzilma loyihalarida qiymatning rejadan tizimli oshishini ko‘rsatgan [6]. O‘zbekistonda qurilishda investitsion faoliyatni shakllantirish va boshqarish masalalari I.O.Karimov tadqiqotlarida [7; 8], korporativ boshqaruvning qurilish korxonalari iqtisodiy samaradorligiga ta’sirini baholash yondashuvlari muallifning ishlarida [9] ko‘rib chiqilgan. Biroq qurilish qiymatining oshishi va markazlashgan investitsiyalar samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik miqdoriy jihatdan baholanmagan.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda markazlashtirilgan kapital qo‘yilmalardan foydalanish samaradorligi deganda qurilish-montaj ishlariga yo‘naltirilgan pul mablag‘larining real (taqqoslama narxlardagi) qurilish hajmiga aylanish

darajasi tushuniladi. Qurilish qiymatining oshishi bu samaradorlikka ikki kanal orqali ta’sir qiladi. Birinchisi – bevosita (xarid qobiliyati) kanali: resurslar narxi oshganda bir xil nominal mablag‘ evaziga kamroq real hajm yaratiladi. Ikkinchisi – talab (bosim) kanali: moliyalashtirish hajmining keskin oshishi resurslarga talabni kuchaytirib, narxlarning qo‘shimcha o‘sishini keltirib chiqaradi. Samaradorlik indeksi quyidagicha aniqlandi:

$$E_t = \Delta ln\ Q_t - \Delta ln\ F_t \qquad (1)$$

bu yerda Q_t – real qurilish hajmi, F_t – nominal moliyalashtirish. Xarid qobiliyatining yo‘qotilishi nominal va real (2020-yil narxlaridagi) hajmlar farqi sifatida baholandi [10]. Talab kanalining ta’siri muallif tomonidan 14 hudud bo‘yicha 2012–2022-yillar panel ma’lumotlari (n = 154) asosida baholangan modellar natijalaridan olindi. Ularga ko‘ra, real moliyalashtirishning real qurilish hajmiga umumiy elastikligi 0,199 ni, nominal moliyalashtirishning qurilish qiymatiga elastikligi 0,081 ni tashkil etadi. Natijada qo‘shimcha moliyalashtirish keltirib chiqargan nominal hajm o‘sishining 27,9 foizi narx o‘sishiga sarflanadi. Dastur prognozi uchta ssenariy bo‘yicha qurildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tahlil ikki yo‘nalishda o‘tkazildi: o‘tgan davrda markazlashgan investitsiyalar xarid qobiliyatining narx oshishi natijasida yo‘qotilgan qismini baholash va 2026–2028-yillar dasturining real qiymatini prognoz qilish. Birinchi yo‘nalish bo‘yicha 2021–2025-yillarda markazlashgan manbalar hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar qurilish narxlari indeksi yordamida 2020-yil narxlariga keltirildi (1-jadval).

1-jadval

Markazlashgan investitsiyalarning joriy va taqqoslama narxlardagi hajmi, trln so‘m

Ko‘rsatkichlar	2021	2022	2023	2024	2025	2021–2025, jami

Joriy narxlarda	45,4	41,8	49,9	52,3	62,6	252,0
Qurilish narxlari indeksi (2020=1,000)	1,106	1,237	1,335	1,437	1,512	–
2020-yil narxlarida	41,1	33,8	37,4	36,4	41,4	190,0
Narx oshishi natijasida yo‘qotilgan xarid qobiliyati	4,3	8,0	12,5	15,9	21,2	62,0
Yo‘qotish ulushi, %	9,6	19,1	25,1	30,4	33,8	24,6

Manba: Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari (2021–2024-yillar markazlashgan investitsiyalari rasmiy ulushlar asosida hisoblangan).

Markazlashgan investitsiyalar hajmi 2021–2025-yillarda joriy narxlarda 45,4 trln so‘mdan 62,6 trln so‘mga, ya’ni 37,9 foizga oshgan bo‘lsa, 2020-yil narxlarida atigi 0,9 foizga o‘sgan [11]. Besh yil davomida joriy narxlarda jami 252,0 trln so‘m markazlashgan investitsiya kiritilgan, ularning 2020-yil narxlaridagi qiymati esa 190,0 trln so‘mni tashkil etadi. Farq – 62,0 trln so‘m yoki 24,6 foiz – qurilish narxlari oshishi natijasida yo‘qotilgan xarid qobiliyatini ifodalaydi. Boshqacha aytganda, nominal o‘sish to‘liq narx o‘sishi bilan “yutib yuborilgan”. Samaradorlikning hududiy farqlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Ayrim hududlarda qurilish qiymati o‘sishi va moliyalashtirishning o‘rtacha ko‘rsatkichlari (2012–2022-yillar), %

Hududlar	Real qurilish o‘sishi	Qurilish qiymati o‘sishi	Nominal moliyalashtirish o‘sishi	Real moliyalashtirish o‘sishi	Narx ulushi *
Jizzax viloyati	13,9	8,5	22,9	9,4	37,9
Surxondaryo viloyati	13,0	10,9	25,3	11,8	45,7
Qashqadaryo viloyati	9,3	11,4	19,9	6,4	55,1
Farg‘ona viloyati	10,2	13,0	22,0	8,5	56,0
Andijon viloyati	9,3	14,0	26,2	12,7	60,1
O‘rtacha	**11,8**	**11,6**	**23,3**	**9,8**	**49,6**

*Manba: muallif hisob-kitoblari (o‘rtacha logarifmik o‘sish, %). 14 hududdan tanlangan hududlar keltirilgan; o‘rtacha qiymat barcha hududlar bo‘yicha hisoblangan. * Nominal qurilish hajmi o‘sishida qiymat oshishining ulushi.*

Hududiy tahlil sezilarli tabaqalanishni ko‘rsatadi. Jizzax viloyatida nominal qurilish hajmi o‘sishining atigi 37,9 foizi qiymat oshishiga to‘g‘ri kelgan. Aksincha, Andijon (60,1 foiz), Farg‘ona (56,0 foiz) va Qashqadaryo

(55,1 foiz) viloyatlarida nominal o‘sishning yarmidan ko‘pi qiymat oshishi bilan izohlanadi. Demak, hududlar o‘rtasida mablag‘ taqsimlashda yagona solishtirma qiymat normativlarini qo‘llash hududiy narx farqlarini hisobga olmaydi: bir xil limit turli hududlarda turlicha real hajm yaratadi.

Ikkinchi yo‘nalish bo‘yicha 2026–2028-yillarga mo‘ljallangan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturining nominal parametrlari (23,9; 25,0 va 31,25 trln so‘m [12]) uch ssenariy bo‘yicha 2025-yil narxlariga keltirildi. Optimistik ssenariyda qurilish narxlarining yillik o‘sishi 4,0 foiz, bazaviy ssenariyda 5,2 foiz (2025-yil darajasi), pessimistik ssenariyda 8,0 foiz (2023–2024-yillar darajasi) deb qabul qilindi. Har bir ssenariyga panel model asosida hisoblangan talab kanali ta’siri qo‘shildi. Dastur hajmining 2027-yilda 4,6 foizga va 2028-yilda 25,0 foizga oshishi hudud qurilish qiymatini mos ravishda qo‘shimcha 0,36 va 1,81 foiz punktga oshiradi. Hisob-kitob natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

2026–2028-yillar dasturining real qiymati bo‘yicha ssenariy prognozi (2025-yil narxlarida)

Ssenariy / yil	Nominal, trln so‘m	Narx o‘sishi*, %	Narx darajasi (2025=1)	Real qiymat, trln so‘m	Real qiymat yo‘qotilishi, trln so‘m	Real qurilish hajmiga ta’sir**, %
Bazaviy: 2026	23,90	5,2	1,052	22,72	1,18	–1,0
2027	25,00	5,6	1,111	22,51	2,49	–2,1

2028	31,25	7,1	1,190	26,26	4,99	–3,5
Pessimistik: 2026	23,90	8,0	1,080	22,13	1,77	–1,5
2027	25,00	8,4	1,171	21,36	3,64	–3,1
2028	31,25	10,0	1,287	24,27	6,98	–5,0
Jami (bazaviy)	**80,15**	–	–	**71,49**	**8,66**	–

*Manba: PQ-393-son qaror parametrlari va panel model baholari asosida muallif hisob-kitoblari. * Ssenariy bo‘yicha narx o‘sishi va talab kanali ta’siri. ** Narxlar barqaror bo‘lgan holatga nisbatan.*

Bazaviy ssenariyda dasturning 2026–2028-yillardagi jami nominal hajmi (80,15 trln so‘m) 2025-yil narxlarida 71,49 trln so‘mga teng bo‘lib, narx oshishi natijasida real qiymatning 8,66 trln so‘mi yoki 10,8 foizi yo‘qotiladi. Pessimistik ssenariyda yo‘qotish 12,39 trln so‘mga (15,5 foiz) yetadi. 2028-yilda nominal hajmning 25 foizga oshishi esa talab kanali orqali qo‘shimcha 1,8 foiz punktlik narx o‘sishini keltirib chiqaradi. Sezgirlik tahliliga ko‘ra, qurilish narxlari yillik o‘sishining har bir foiz punktga oshishi dasturning real qiymatini qo‘shimcha 1,3–1,5 trln so‘mga kamaytiradi: narx o‘sishi 3 foiz bo‘lganda yo‘qotish 6,8 foizni, 10 foiz bo‘lganda 18,5 foizni tashkil etadi.

Moliyalashtirishni yillar bo‘yicha taqsimlash samarasini baholash uchun muqobil ssenariy ham hisoblandi. Dasturning uch yillik jami hajmi yillar bo‘yicha teng taqsimlansa (har yili 26,7 trln so‘m), talab kanali orqali qo‘shimcha narx bosimi yuzaga kelmaydi va dasturning real qiymati 72,49 trln so‘mni tashkil etadi. Bu bazaviy ssenariyga nisbatan 1,0 trln so‘m (1,4 foiz)

ko‘p. Demak, dastur mablag‘larini yillar bo‘yicha tekis taqsimlash moliyalashtirish samaradorligini oshirishning qo‘shimcha xarajatsiz zaxirasidir.

Ekonometrik baholar asosida dastur limitlarini rejalashtirish uchun amaliy formula taklif etiladi. Agar t-yil uchun real ifodada rejalashtirilgan qurilish hajmi (bazis yil narxlarida) L*_t bo‘lsa, uni ta’minlash uchun zarur nominal limit quyidagicha aniqlanadi:

$$L_t = L^*_t \cdot \Pi_k\,(1 + p_k + \delta \cdot g_k) \qquad (2)$$

bu yerda p_k – k-yil uchun qurilish narxlarining prognoz o‘sishi, g_k – dastur hajmining o‘sish sur’ati, δ = 0,081 – panel model bo‘yicha talab kanali koeffitsiyenti. Masalan, 2028-yil uchun 2025-yil narxlarida 26,26 trln so‘mlik real hajmni ta’minlash uchun bazaviy ssenariyda 31,25 trln so‘m nominal limit talab etiladi.

Olingan natijalar xalqaro baholashlar bilan bir xil tartibda: 2021–2025-yillarda markazlashgan investitsiyalar xarid qobiliyatining 24,6 foizi yo‘qotilgani va qo‘shimcha moliyalashtirishning 27,9 foizi narx o‘sishiga sarflanishi XVJ tomonidan baholangan o‘rtacha 30 foizlik samaradorlik yo‘qotishiga yaqin [2]. Biroq XVJ baholashi loyihalarni tanlash, amalga oshirish va foydalanishdagi barcha kamchiliklarni qamrab oladi, ushbu tadqiqotdagi ko‘rsatkich esa faqat narx kanalini ifodalaydi. Talab kanalining mavjudligi dastur hajmlarini keskin oshirish samaradorlikni pasaytirishini ko‘rsatadi; bu ko‘p yillik budjetlashtirish va moliyalashtirish barqarorligini samaradorlikning asosiy sharti deb biluvchi xalqaro tavsiyalarga mos keladi [5]. Pudratchi korxonalarda narx siyosati va xatarlarni boshqarish sifati, ya’ni korporativ boshqaruv mexanizmlari markazlashgan mablag‘lar samaradorligining mikroiqtisodiy asosini tashkil etadi [9].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, 2021–2025-yillarda markazlashgan investitsiyalar nominal ifodada 37,9 foizga

oshgani holda, 2020-yil narxlarida ular atigi 0,9 foizga o‘sgan. Joriy narxlarda kiritilgan 252,0 trln so‘mning 62,0 trln so‘mi (24,6 foizi) qurilish narxlari oshishini qoplashga sarflangan. Ikkinchidan, moliyalashtirish samaradorligi hududlar bo‘yicha keskin farqlanadi: nominal qurilish hajmi o‘sishida narx ulushi Jizzax viloyatida 37,9 foizni, Andijon viloyatida 60,1 foizni tashkil etgan. Uchinchidan, 2026–2028-yillar dasturining real qiymati bazaviy ssenariyda narx oshishi natijasida 10,8 foizga (8,66 trln so‘m), pessimistik ssenariyda 15,5 foizga kamayadi. Narx o‘sishining har bir foiz punkti dastur real qiymatini 1,3–1,5 trln so‘mga qisqartiradi. To‘rtinchidan, moliyalashtirishni yillar bo‘yicha tekis taqsimlash talab kanali orqali narx bosimini kamaytirib, real qiymatni oshiradi.

Natijalar asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi: dastur limitlarini real ifodada rejalashtirish va zarur nominal limitni narxlar prognozi hamda talab kanali koeffitsiyentini hisobga olgan formula bo‘yicha aniqlash; markazlashgan investitsiyalar samaradorligini baholash uchun real qurilish hajmining nominal moliyalashtirishga nisbati indeksini rasmiy monitoring ko‘rsatkichlari tizimiga kiritish; narx bosimi yuqori hududlarda (Farg‘ona vodiysi) limitlarga hududiy tuzatish koeffitsiyentlarini qo‘llash; dastur hajmini keskin oshirish o‘rniga moliyalashtirishni yillar va choraklar bo‘yicha tekis taqsimlash; pudratchi korxonalarda narx xatarini boshqarishni korporativ boshqaruv tizimiga integratsiya qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Aschauer D.A. Is Public Expenditure Productive? // Journal of Monetary Economics. – 1989. – Vol. 23, № 2. – P. 177–200.

2. International Monetary Fund. Making Public Investment More Efficient. IMF Policy Paper. – Washington, D.C.: IMF, 2015.

3. Schwartz G., Fouad M., Hansen T., Verdier G. (eds.). Well Spent: How Strong Infrastructure Governance Can End Waste in Public Investment. – Washington, D.C.: IMF, 2020.

4. Dabla-Norris E., Brumby J., Kyobe A., Mills Z., Papageorgiou C. Investing in Public Investment: An Index of Public Investment Efficiency // Journal of Economic Growth. – 2012. – Vol. 17, № 3. – P. 235–266.

5. Rajaram A., Le T.M., Biletska N., Brumby J. A Diagnostic Framework for Assessing Public Investment Management. World Bank Policy Research Working Paper № 5397. – Washington, D.C.: World Bank, 2010.

6. Flyvbjerg B., Holm M.S., Buhl S. Underestimating Costs in Public Works Projects: Error or Lie? // Journal of the American Planning Association. – 2002. – Vol. 68, № 3. – P. 279–295.

7. Karimov I.O. Qurilish sohasida investitsion faoliyatni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari // Muhandislik va iqtisodiyot. – 2025. – № 3(4). – B. 10–18. – DOI: 10.5281/zenodo.15424017.

8. Karimov I.O. Qurilish korxonalarida investitsiyalarni boshqarishning xorijiy tajribalari va ularni mamlakatimizda foydalanish yo‘llari // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. – 2025. – № 3(4). – B. 12–17. – DOI: 10.5281/zenodo.15279522.

9. G‘iyosov I.K. Korporativ boshqaruvning qurilish korxonalari iqtisodiy samaradorligiga ta’sirini baholashning nazariy yondashuvlari. – 2026. – DOI: 10.5281/zenodo.22629516.

10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Asosiy kapitalga investitsiyalar va qurilish ishlari narxlari indeksi (yillik), ko‘rsatkich kodi 1.11.02.0013 // siat.stat.uz.

11. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar (2025-yil yanvar–dekabr). Press-reliz. – Toshkent, 24.01.2026. – B. 2–3 // stat.uz.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2026–2028-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini

rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-393-son qarori. 2025-yil 27-dekabr, 1-ilova // www.lex.uz/docs/-7955865.